

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY JAZO CHORALARINI QO'LLASH FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI XUSUSIYATLARI**

**Maxmudov Xurshidbek Nu'monjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 313-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining ma'muriy jazo choralari qo'llash faoliyati huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyatda tartibni saqlashga yo'naltirilgan muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, jazo choralari profilaktik xarakterga ega ekanligi bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, profilaktika inspektorlari nafaqat jazolash, balki huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarni qonunlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ularni yana qayta huquqbuzarlik sodir etishini oldini olishdan iboratdir.

**Аннотация:** Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что деятельность инспектора по применению административных санкций является важным процессом, направленным на предупреждение преступлений и поддержание порядка в обществе. Специфика данной деятельности связана, прежде всего, с тем, что меры наказания носят профилактический характер, инспекторы-профилактики не только наказывают, но и предупреждают правонарушения, воспитывают граждан в духе уважения к закону, чтобы они не совершают правонарушений снова, заключается в профилактике.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, profilaktika inspektori, ma'muriy jazo, huquqbuzarlik, ogohlantirish, profilaktika, qonuniylik, adolatlilik, tizimli yondashuv, ma'muriy jazo choralari ta'siri.

**Ключевые слова:** Конституция, инспектор по профилактике, административное наказание, правонарушение, предупреждение, профилактика, законность, справедливость, системный подход, действие административных наказаний.

“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiya”si asosida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash yuzasidan qator isohotlar amalga oshirilmoqda.

Profilaktika inspektorining ma'muriy jazo choralari qo'llash faoliyati huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibni saqlash va jamiyatda qonunlarga rioya qilishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy vazifasi faqat jazolashdan iborat emas, balki huquqbuzarliklarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilib, oldini olishga



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

yo'naltirilgan profilaktik choralarni amalga oshirishdir. Profilaktika inspektorlarining faoliyatida jazo turining tanlovi, qonuniylik va adolat prinsiplariga rioya qilinishi, hamda mahalliy sharoitlarni hisobga olish zarurati katta ahamiyatga ega. Shuningdek, profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarni oldini olish uchun targ'ibot, tushuntirish va ma'lumot berish kabi profilaktik tadbirlarni amalga oshiradilar. Bularning barchasi, profilaktika inspektorining ma'muriy jazo choralarni qo'llashdagi o'ziga xos yondashuvini belgilaydi.

Mamuriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vaqtida profilaktika inspektorlari quyidagi holatlarni aniqlashi shart:

- mamuriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligini;
- huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyni;
- mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor-aybdor emasligini;
- uning mamuriy javobgarlikka tortilish-tortilmasligini;
- javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar bor-yo'qligini;
- mulkiy zarar yetkazilgan-etkazilmaganligini;
- ishni to'g'ri hal yetishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashi shart.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda MJtKga asoslanadilar, eng avvalo, bu ish uning sohasiga kirish-kirmaslik masalasini hal etmog'i lozim. Bu ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishning unga tegishlisini belgilashning qonunda nazarda tutilgan qoidalaridan kelib chiqib hal etiladi. Kodeksning 245–268-moddalari, huquqbuzarlikning tegishli turlari uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi kodeksning alohida qismi ko'rsatmalari bilan ma'muriy huquqbuzarlik har bir organing amaliy huquqi doirasini belgilaydi.

Ma'muriy javobgarlik quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- bu davlat majburlovi bo'lib, davlat faoliyatining turli sohalarida sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi;
- aybdor shaxslar qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida vakolatli organlar, mansabdor shaxslar tomonidan javobgarlikka tortiladi;
- ma'muriy javobgarlikka tortilganlar sudlangan hisoblanmaydi;
- engil jazo beriladi va jazo muddati qisqa belgilanadi;
- moddiy javobgarlik moddiy zarar yetkazilgandagina qo'llaniladi, ma'muriy javobgarlikka esa moddiy zarar yetkazilmagan bo'lsa ham tortish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 13-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda o'n olti yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortiladilar, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlikning sub'yekti hisoblanadilar.

Ayrim turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni 13 yoki 14 yoshdanoq jinoiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yadigan jinoyatga oid qonunchilik hujjatlaridan farqli o'laroq, ma'muriy huquqda shaxs faqat 16 yoshga to'lgan taqdirdagina ma'muriy javobgarlikka tortiladi, bunda ishni ko'rib chiqish yoki ish bo'yicha qarorni bajarishning boshlanish paytida emas, balki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytga kelib mazkur yoshga to'lgan shaxslar shu javobgarlikka tortiladi. 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

huquqbuzarlik nimadan iborat ekanligini to'la anglab yetishga, ularni sodir etishga yo'l qo'yib bo'lmasligini tushunishga va ularni sodir etganlik uchun shaxsan javob berishga qodir bo'ladilar.

Ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Ana shu shaxslar MJtKning 61, 125-136, 138, 183-185, 194, 218, 220, 221-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (MJtKning 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi shahar, tuman, shaharlardagi tuman komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

